

DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDA AYOLLARNI O'RNI VA ROLI**Jumanazarova Oyro'za Abdusattor qizi,****Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.8081337>**

Annontatsiya: ushbu maqolada ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquqlari va kafolatlari, shuningdek, davlat va jamiyat hayotida ularning o'rne va rolini oshirish masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ayol, huquq, xalqaro shartnoma, BMT, Konvensiya, Markaziy Osiyo, Konstitutsiya, qonun, uzluksiz va sifatli ta'lim.

Ayol – muqaddas xilqat. Qadimdan ayol zoti, mo'tabar ona, mehribon opa-singil, sevikli va vafodor yor sifatida doim qadrlangan. Barchamizga ayonki, onalarni, ayol zotini e'zozlash el-yurtimiz uchun azal-azaldan ezgu qadriyat bo'lib kelgan. Buning boisi, yurtimizda o'sib ulg'aygan har bir inson mehr-muhabbat va odamiylikning ilk saboqlarini mushtupar onalarimizdan, ularning beshik uzra parvona bo'lib aytgan alla ohanglaridan olgan. Darhaqiqat, hayotimiz mazmuni bo'lgan sadoqat, mehr-muhabbat, nazokat va latofat kabi eng nozik sirli tuyg'ularni Yaratganning beqiyos mo'jizasi bo'lmish ayol zotisiz aslo tasavvur eta olmaymiz. Ayollarning huquqlari – bu ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy, fuqarolik va siyosiy mavqeini mustahkamlaydigan huquqlardir. Ayol huquqlari inson huquqlari sohasidagi ko'plab xalqaro shartnomalar, rezolyutsiyalar, deklaratsiyalar va harakatlar dasturida kafolatlangan asosiy inson huquqlaridan biridir. Xotin-qizlar huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro shartnoma BMTning ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasi (CEDAW) va uning Fakultativ protokoli hisoblanadi. Bundan tashqari, ayollar huquqlari BMTning boshqa shartnomalarining, jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi Fuqarolik va siyosiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro pakt, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Konvensiyalar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi ayollar huquqlarini har doim ta'minlashga alohida e'tibor beradi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib 1995-yil 6-mayda BMTning xotin-qizlarning kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyasiga qo'shildi. Shuningdek, onalikni himoya qilish to'g'risida mehnat va kasb sohasidagi kamsitish to'g'risidagi konvensiyalar va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. O'zbekiston BMTning ayollarga nisbatan kamsitishlarining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shilganidan beri, 6ta davriy hisoboti BMTning xotin-qizlarga nisbatan kamsitishni tugatish qo'mitasiga topshirildi. Ayollarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan izchil qonunchilik va boshqa chora-tadbirlar tufayli, ular o'z huquq va erkinliklarini tadbirkorlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, fan va ijtimoiy siyosiy sohalardagi bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimiz aholisining qariyb 50%ini xotin-qizlar tashkil etadi. Bu esa ayollar borasida siyosat jarayonida alohida g'amxo'rlikni talab etadi, qolaversa, jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning ayollarga bo'lgan munosabati va g'amxo'rligi bilan belgilanadi. Shu sababli, bugun yurtimizda ham xotin qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash, Respublikamizda olib borayotgan islohotlardan muhim yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Bugungi kunda, ayollarning qonuniy huquq va erkinliklari davlatimizning qonunchiligida to'liq mustahkamlanadi. Xususan, O'zbekistonning asosiy qonuni Konstitutsiyaning 58-moddasida xotin-qizlar va

erkaklar teng huquqlari va erkinliklari mustahkamlanib qo'yilgan. Ayolning nozik tabiati, bolalar tarbiyasi va oiladagi o'rnini hisobga olib, qonunchilikda kasb-kor va mehnat sohasida ham ular uchun qator imtiyozlar belgilandi. Xususan, homilador ayollar va bolalar parvarishi uchun haq to'lanadigan ta'til, yosh bolali onalarning ish vaqtini qisqartirish kabi kafolatlar ayni shu imtiyozlar jumlasidandir. Ayrim holatlarda ish beruvchilar homilador yoki kichik yoshli farzandi bor ayollarni turli va'jlarni ko'rsatib, ishga qabul qilmaslikka harakat qiladilar. Bu esa, huquqbuzarlik sanaladi. O'z navbatida, homiladorligi yoki bolasi borligi sababli, ayollarni ishga qabul qilishni rad etish va ularning ish haqini kamaytirish tegishli javobgarlikka sabab bo'ladi. Shuningdek, homilador ayollarni va 14 yoshga to'lmagan ayollarni ularning rozilgisiz, tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish kunidagi ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yuborishga yo'l qo'yilmaydi. Bundan tashqari, xodimlar uchun odatda, 40 soatlik ish haftasi belgilangan bo'lsada, 3 yoshga to'lmagan bolalari bor, byudjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan, muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollarga ish vaqtining haftasiga 35 soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddat belgilanadi. Bundan tashqari, yurtimizda 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish" to'g'risidagi qonuni qabul qilindi, u ayollarni uyda, ish joyida ta'lim muassasalarida zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Har qanday xalqning yetuklik darajasini avvalo, ayollarning ilmiy madaniy kamoloti belgilab berishi oqila va o'qimishli onalar, millatning buyuk kelajagini yaratishlari hammamizga yaxshi ayon. Shu bois, yurtimizda xotin-qizlarning ta'lim borasidagi imkoniyatlarini kengaytirish, ularni uzluksiz va sifatli ta'lim bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, buyuk ma'rifatparvar adib, Abdulla Avloniy aytganidek, "Qizlar bilim olishga hammadan ko'proq intilishlari lozim, chunki, bu bilimlar ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar". Shunday ekan, bugun xotin-qizlar ta'lim-tarbiyasiga berilayotgan e'tibor, kelajak avlod uchun e'tibor sanaladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023.
2. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida konvensiya 18.12.1979. Nyu-York
3. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga doir fakultativ bayonnoma 16.12.1966. Nyu-York
4. Iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Konvensiya 16.12.1966. Nyu-York
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 10.12.1948. Nyu-York
6. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 02.09.2019. O'RQ-561-son
7. www.moturidiy.uz
8. www.lex.uz